Например, только в 2023 году сотрудниками отдела сервисного обслуживания получены и на 100 процентов выполнены более 10 тысяч заявок из 24 подразделений АО «НГМК» по площадке Навои. Также в прошлом году для руководителей и специалистов управления и подразделений АО «НГМК» организованы и сопро-

вожены более 500 видеоконференций и оказана техническая поддержка через платформы Zoom, Trueconf, Microsoft Teams и т.д.

Отдел сервисного обслуживания обслуживает около 6000 персональных компьютеров и ноутбуков, 1126 копировально-множительной техники (плоттеры, МФУ, принтеры и сканеры), 439 IP-телефонов, 42 источника бесперебойного питания, 44 телекоммуникационных центра (шкафы), 130 единиц активного сетевого оборудования (коммутаторы, межсетевые экраны, маршрутизаторы, модемы и роутеры), 86 патчей панелей RJ-45 по 24 порта (общее количество портов – 2064 ед.).

Коллектив активно участвует не только в производственной, но и общественной жизни комбината. Например, ребята постоянно принимают участие в спортивных, интеллектуальных и развлекательных мероприятиях, занимают призовые места.

В нашей команде преобладает спокойный, доброжелательный эмоциональный фон, – добавляет техник Амирхон Тураев. – Людям комфортно работать вместе, они рады видеть друг друга. С радостью приходят на корпоративные мероприятия и общаются за пределами работы. Каждый сотрудник может высказать свое мнение, к которому прислушаются. В такой атмосфере растет эффективность и инициативность. Реально, на

работу идти с удовольствием!

Руководитель группы обслуживания структурированных кабельных систем Азиз Ахралов – один из опытных специалистов, который работает в ОСО уже много лет и передает свой опыт и знания молодежи – считает, что наличие квалифицированных IT-сотрудников, специализирующихся на техническом обслуживании компьютерной техники, оказывающих своевременное и надежное обслуживание для бесперебойной и эффективной работы компьютерного оборудования, дает пользователям уверенность и спокойствие. Для специалистов ОСО настройка и обслуживание компьютеров являются не только источником дохода, но и любимым занятием и смыслом жизни.

Эффективными мероприятиями, предупреждающими сбои в функционировании систем, являются периодическая профилактика физической составляющей компьютерного оборудования и программной среды, а также периодическое консультирование пользователей с новшествами и изменениями информационных систем, внедренных в комбинате. При этом ремонт и обслуживание компьютеров и оргтехники должны производиться только квалифицированными специалистами, профессионалами в своем деле, коими являются сотрудники отдела сервисного обслуживания ЦИКТ Навои УИКТ.

Ситора ЯТИМОВА.

■ Актуально

Коллектив Управления автоматизации производства (УАП) АО «Навоийский ГМК» совместно с входящей в его структуру командой специалистов Центральной лаборатории контрольно-измерительных приборов и автоматики (ЦЛ КИПиА) наряду с выполнением первоочередных задач по осуществлению метрологического обеспечения, технического обслуживания, настройки и ремонта измерительного оборудования, реализуют актуальные, сложнейшие и масштабные проекты по техническому и технологическому обновлению, модернизации и автоматизации предприятия, внедрению искусственного интеллекта и цифровых технологий в производственные процессы.

АВТОМАТИЗАЦИЯ — НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ПРОИЗВОДСТВА

В современных условиях автоматизация и цифровизация производства, бизнес-процессов очень важны для развития экономики любого предприятия. И в АО «НГМК» на сегодняшний день проделан большой объем работ в этом направлении, тем более, что за последние пять лет построены новые заводы, расширяются и модернизируются действующие предприятия.

Преимущества внедрения автоматизации и цифровых технологий в производство очевидны. А именно: усиливается эффективность производственных и технологических процессов на фоне сокращения затрат; повышается гибкость производства, что позволяет ему быстро адаптироваться к внешним изменениям и создаёт конкурентное преимущество; цифровизация в промышленности позволяет максимально автоматизировать и роботизировать все процессы; в разы снижает аварийность на производстве, травматизм и влияние вредных производственных факторов.


В соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мер по её эффективной реализации» в НГМК ежегодно разрабатывается программа цифровой трансформации комбината. В её рамках в 2021-2023 годах реализо-

ваны более 40 мероприятий по внедрению цифровых технологий в производственные и управленческие процессы предприятия.

Одним из них является проект «Создание цифрового гидрометаллургического завода», цель которого – ускорить обмен информацией в низших и высших системах управления за счёт комплексной интеграции автоматизированных систем управления на предприятии и внедрения интеллектуальной системы управления, возможности контролировать производственные показатели в режиме «онлайн», своевременно выявлять любые изменения или сбои в производстве и принимать оперативные меры.

В рамках данного проекта на гидрометаллургических заводах №5 и 7 внедрены интеллектуальные системы управления производственными процессами металлургии. А именно, осуществлена модернизация действующих автоматизированных систем управления технологических процессов (АСУТП) и их интеграция в автоматизированную систему оперативно-диспетчерского управления (АСОДУ) гидрометаллургических заводов.

Согласно Постановлению Президента Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на новый уровень сферы информационно-коммуникацион-



«НГМК» на 2023-2030 годы, в рамках которой запланирована реализация программ цифровизации по 12 направлениям и включающая внедрение в деятельность комбината 116 современных цифровых решений.

В целях обеспечения поэтапной реализации данной Стратегии в 2024 году разработана и утверждена Программа мероприятий по реализации проектов стратегии цифровой трансформации АО «НГМК». Согласно данной программе планируется реализация ряда ключевых проектов, таких как повышение операционной эффективности ГМЗ-3 за счёт автоматизации и цифровизации технологических процессов производства, внедрение автоматизированной системы управления технологическими процессами (АСУТП) мельничного блока №7 ГМЗ-3, разработка и внедрение цифровых мельничных блоков №1 и №14 ГМЗ-2 на базе современного программно-технического комплекса.

Планов на текущий год много. А для того, чтобы они воплотились в жизнь – нужна чёткая, грамотная и слаженная работа всего коллектива, каждый специалист важен на своём месте. Можно быть уверенным, что с таким багажом из накопленных знаний, опыта, человеческих ресурсов, побед и взлётов, смелых идей и планов как в коллективах УАП и ЦЛ КИПиА под наставлением опытных руководителей Вохиждона Пулатова и Икрома Ганиева все задачи будут своевременно выполнены.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Профессионалы

Отделы технического контроля (ОТК) есть на каждом производственном предприятии, поскольку без постоянного контроля качества любой продукции невозможно развиваться и оставаться конкурентоспособным.

Начальник ОТК завода по производству урана ГП «Навоийуран» Махбуба Джураева трудится в этой сфере уже более 20 лет, а руководство ГП «Навоийуран» ценит её за профессионализм, высокую работоспособность, верность делу.

Родилась Махбуба Шахридиновна в городе Навои. С 1999 по 2003 годы училась в Навоийском государственном горном институте (ныне НГГТУ) на факультете металлургии, по окончании которого устроилась на гидрометаллургический завод №1 ГП «Навоийский ГМК». Анкетой молодой выпускницы вуза заинтересовалась начальник ОТК завода Анна Комарова, и после собеседования приняла Махбубу контролёром в свой отдел. В то время ОТК ГМЗ-1 обслуживал золотой, урановый переделы, и цех №1 по выщелачиванию магнитной фракции.

– Такие специалисты ОТК как А.Комарова, Т.Ивлева, Н.Новохацкая были очень хорошими наставниками, – говорит М.Джураева. – Они не просто научили меня всем тонкостям работы контро-

лёра ОТК, но и привили любовь к этому делу...

В 2007 году М.Джураева поступила в магистратуру по направлению «Обогащение полезных ископаемых». В 2009 году под руководством заместителя начальника Центральной научно-исследовательской лаборатории НГМК, профессора Олега Петухова успешно защитила магистерскую диссертацию. В том же году её перевели контрольным мастером ОТК по урановому переделу.

В 2013 году М.Джураева перевелась инженером в ОТК НМЗ.

– Если на ГМЗ-1 я контролировала технологические процессы по производству урана и золота, то на НМЗ контролировала, в основном, продукцию литейного цеха, – говорит М.Джураева. – Для меня это был новый опыт, который тоже расширил мой профессиональный кругозор. В 2016 году перешла в службу технического контроля управления НГМК, где работала под руководством Бахтиёра Холмуродова. Здесь был более широкий диапазон контроля – по всем подразделениям комбината, и это тоже стало хорошей

НА ПЕРЕДОВОЙ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА

школой. В 2022 году меня пригласили начальником ОТК завода по производству урана в ГП «Навоийуран», где и работаю по настоящее время под началом директора завода С.Пулатова и методическим руководством начальника СТК ГП «Навоийуран» Ш.Кузиева...

Работников ОТК зачастую называют мини-технологами. И это не случайно, поскольку они досконально знают всю технологическую цепочку производства, да и контролировать и вовремя замечать нарушения на каких-то её этапах. В чём же конкретно заключается работа контролёров ОТК?

– Наша задача – отследить весь технологический процесс по карте контроля, – рассказала Махбуба Шахридиновна. – Сырьё в виде солей сернокислых к нам на завод поступает в цистернах из 6 геотехнологических рудников, расположенных в Зафарбаде, Учкудуке и Нурабаде. Конечной продукцией завода, да и всего предприятия в целом, является закись-окись урана.

Помимо этого, в обязанности контролёров ОТК входят отбор, подготовка и сдача на анализ проб урансодержащих продуктов в лабораторию для обеспе-

чения требуемого качества продукции; подготовка и сдача на анализ проб для получения отчётных или контрольных данных с целью выявления нарушений технологических процессов, определения точек потерь, составления балансов; организация контроля и эксплуатации оборудования для контроля; обеспечение необходимой информацией руководства предприятия о нарушениях технологических режимов; входной контроль всех поступающих на завод материалов и химических реагентов.

Коллектив отдела технического контроля завода по производству урана небольшой – 8 контролёров, работающих по сменам. Рядом с опытными контролёрами И.Боймирадовой и Х.Аббазовым трудятся молодые кадры – С.Пулатова, У.Худайбердиева, И.Суюнова, М.Джураева. Каждый из них – это ответственный, целеустремлённый, знающий своё дело специалист. В основном, это магистры и бакалавры Навоийского государственного горного института, которые



постоянно занимаются самообразованием.

В завершение можно сказать, что продукция ГП «Навоийуран» не зря славится своим высоким качеством, пока на страже её соответствия необходимым стандартам и всем требованиям потребителей стоят такие преданные делу, увлечённые, грамотные специалисты как М.Джураева и её сплочённая команда.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Наши новости

ЛУЧШИЙ МОЛОДОЙ РАБОЧИЙ ПО СБОРКЕ МЕТАЛЛОКОНСТРУКЦИЙ

Стало доброй традицией проводить конкурс профессионального мастера среди молодых рабочих НМЗ. Конкурс не теряет своего главного назначения – путем соревнований подстегнуть стремление молодежи повышать свой квалификационный уровень.

В котельно-сварочном цехе проходил конкурс «Лучший молодой рабочий по сборке металлоконструкций» На первом этапе проверялись теоретические знания рабочих. Заявки на участие подали 11 человек.

Итоги проверки теоретических знаний показали, что более ответственно к этой части конкурса подошли Р.Икромов, Х.Хусанов, Б.Косимов, Ж.Явкачев, Р.Ахметзянов, И.Шомирзаев и Ф.Тожимуродов – все 7 соревнующихся были допущены ко второму туру конкурса.

Во второй части конкурса ребята работали четко, без особой суеты и торопливости, но не забывая о нормах времени и соревновании. По результатам двух этапов конкурса лучшим оказался Фахриддин Тожимуродов. Второй результат показал Ханжар Хусанов и третье место занял Баходир Косимов.

Объявляя победителей конкурса «Лучший молодой рабочий по сборке металлоконструкций», инженер-технолог МТГ КСЦ Алишер Сагаатов поздравил ребят с отличными результатами и пожелал и дальше продолжать оттачивать мастерство.

Подобная проверка теоретических и практических знаний молодежи показывает, что на производстве растёт достойная смена.

ПОДЗЕМНОЕ БУРЕНИЕ С ВЕРАМИ СКВАЖИН

В целях экономии затрат на проведение подземной разведки проходкой горных выработок (тяжелого типа) геологическими службами подземных рудников и персоналом подрядных разведочных экспедиций НГМК с 2023 года разведку рудных тел на глубоких горизонтах месторождений Зармитан, Гужумсой, Урталик и Каракутан применяется разведка при помощи опережающего подземного бурения с веерами скважин станками «SID-5A» (Китай) из подземных камер горных выработок, размещённых на верхних горизонтах. Этот процесс приводит к повышению производительности (ускорению) разведочных и добычных работ в 3 раза, а также сокращению времени.

ЗАБОТА О ПЕНСИОНЕРАХ — В АДРЕСНОЙ ПОМОЩИ

Планом работы Навоийского территориального филиала Совета ветеранов горной и металлургической промышленности Республики Узбекистан на 2024 год предусмотрено оказание помощи нуждающимся в медицинских приспособлениях пенсионерам АО «Навоийский ГМК».


В связи с этим, с начала года выделены более 20 слуховых аппаратов ветеранам комбината в городах Навои, Зарафшан, Учкудук, п.Заркент. Для каждого пенсионера комбината данная помощь оказалась своевременной, и доказательством того, что о них помнят и заботятся.

Shifokor minbari

Bolalar orasida xalqda "sarg'ayma" nomi bilan yuritiladigan virusli gepatit "A" bilan kasallanish holatlari ko'paymoqda. Kasallik turlari, alomatlari, kechishi va davolash yo'llari, yuqtirmaslik uchun nimalarga ahamiyat berishimiz kerakligi to'g'risidagi savollarmizga 3-Tibbiy-sanitariya qismining tajribali shifokori Nodira Shukurova javob beradi.



BOLANGIZNI "SARIQ" KASALLIGIDAN ASRANG!



Nodira Norboyevna, virusli gepatit o'zi qanday kasallik, ko'proq necha yoshdagilar bu kasallikka chalinishadi?

Virusli gepatit deganda bir-biriga o'xshash A, V, S, D, E, G viruslarini qo'zg'atadigan olti xil gepatit tushuniladi. Hozir virusli gepatit "A" kasalligi ko'p tarqalmoqda. Bu o'tkir yuqumli jigar kasalligi bo'lib, har yili yer yuzida o'n million nafarga yaqin, odam ushbu kasallikka chalinaldi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar boshqalarga nisbatan ko'proq kasallanadi. Bir yoshgacha bolalarda bu kasallik uchramaydi. Sababi, ularda onasidan o'tgan immunitet bo'ladi.

Gepatit "A" kasalligi jigar to'qimalarining yallig'lanishi, o'zgarishlari, intoksikatsiya, ya'ni zaharlanish sindromlarining paydo bo'lishi, jigar va taloqning katalashishi, jigar faoliyatining klinik va laborator buzilishlari, sariqlik belgilarining paydo bo'lishi, siydik rangining to'q rangga kirishi va axlatning rangsizlanishi bilan xarakterlanadi. Kasallik klinikasida holsizlik va damonsizlik, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynishi va qayt qilish, mushaklarda og'riq simptomlari namoyon bo'ladi.

Yashash va ish joylarining sanitariya jihatdan qoniqarsiz holatda bo'lishi, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmasslik, aholining zichligi, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash qoidalarining buzilishi, sifatsiz ichimlik suvidan foydalanish viruslarning ko'payishiga sharoit yaratadi.

Kasallik alomatlarini qanday bilishimiz mumkin?

Gepatit "A"ning klinikasi boshlang'ich, sarg'ayish va sog'ayish davrlariga ajratiladi. Boshlang'ich, ya'ni sarg'ayishdan oldingi davri o'rta hisobda bir hafta davom etadi, bemor badanida sariq bo'lmaydi. Bu davrda bemorning eti uvi-shib qaltiraydi, boshi og'riydi, a'zoyi badani qaqshaydi, tumov belgilari ko'rinadi, burni bitib, tomog'i og'riydi, yo'taladi, ishtahasi bo'g'iladi, kundan-kunga madori qurib, behollik kuchaya boradi. Bizga murojaat etgan bemorlardan siydigining rangi o'zgarгани haqida so'raymiz. Odatda, bemorning ko'zi va badani sarg'ayishidan bir necha kun oldin siydigi to'q sariq tus oladi, xuddi achchiq cho'ya yoki pivoga o'xshash bo'ladi.

Virusli gepatitning boshlang'ich davri qanday sindrom bilan kechishidan qat'iy nazar, kasallikka xos uch belgi kuzatiladi: siydikning pivo rangida bo'lishi, axlat rangining oqarishi va deyarli 90 foiz hollarda jigaming kattalashishi.

Kasallikni davolash haqida ham qisqacha to'xtalasangiz.

Davolash, bemorning umumiy ahvoli va kasallikning klinik belgilariga qarab olib boriladi. Parhez va kun tartibiga amal qilishdan tashqari, glukoza, vitaminlar, tuzli eritmalar, zarur hollarda garmonlar, antibiotiklar buyuriladi. Bemorga vitaminlar, karbonsuvlar, oqsilga boy ovqatlar, shuningdek, turli meva sharbatlari beriladi.

Kasallikdan qanday himoyalash kerak?

Sog'lom turmush tarziga, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, ovqat tayyorlash va ovqatlanishdan oldin, jamoat joylari va hojatxonaga borgandan so'ng qo'lni yaxshilab, sovunli suvda yuvish shart. Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldin oqar suvda, so'ngira qaynagan suvda yaxshilab yuvish, yashash joy gigiyenasiga rioya qilish, xonalarni shamollatish va namli tozalov ishlarini muntazam olib borish kundalik turmush tarzimizga aylanishi kerak.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda virusli gepatit "A" kasalligidan himoyalovchi samarali vaktsinalar ishlab chiqilib, ommaviy emlash ishlari olib borilmoqda. Mamlakatimizda ham ushbu vaktsinalar keng qo'llanilmoqda.

Shifokor sifatida siz ota-onalarga bu borada qanday tavsiya berasiz.

Virusli gepatit "A" kasalligiga qarshi emlash 94-98 foiz holatlarda bu kasallikning oldini oladi va ushbu vaktsina ishlatilganda emlashdan keyingi asoratlar kuzatilmaydi. Hozir kasallikka qarshi emlash ishlari keng tarzda olib borilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, ushbu vaktsinaning xavfsizligi va sifatini kafolatlovchi sertifikatlari mavjud bo'lib, vaktsinasiya bir marotaba qo'llaniladi, qayta emlash ishlari talab etilmaydi. 18 oylikdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar virusli gepatit "A" kasalligiga qarshi emlanishi rejalashtirilgan. Emlash ishlari shahar tibbiyot birlashmasining emlash punktida amalga oshirilmoqda. Emlash natijasida immunitet paydo bo'lib, u 15-20 yilgacha saqlanadi va kasallik tarqalishining oldini oladi.

Kasallikka chalingan bemor uzoq muddat jismoniy harakatdan cheklanishi, parhezga rioya qilishi, jigar faoliyatini qayta tiklash uchun ko'plab dori vositalarini qabul qilishi zarur. Bemor to'liq tuzalmas ekan, unga e'tibor hamda parvarish talab etiladi. Shunday ekan, bolangizni yuqumli "sariq" kasalligidan asrang!

Nafosat ZIYOYEVA suhbatlashdi.

Благодарственное письмо

СПАСИБО, ЗА ОПЕРАТИВНОСТЬ

Благодарю Генерального директора ГУ «Фонд НГМК» Очилова Д.М. за оперативное решение по моему обращению в ремонте отопительной системы в ванной, где не было отопления с 2021 года. Благодарна специалистам фонда за устранение неполадок в системе. Желаю работникам фонда здоровья и трудовых успехов.

Антонина РУССКИНА,
ветеран НГМК.

Ko'ngil tubidagi gaplar

MAHALLA – MILLIY QADRIYAT O'CHOG'I

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 26-sentabr kuni mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish yuzasidan videoselektor yig'ilishida mahalladagi beshlik tizimi "mahalla yetilligi"ga aylanishini, ularning safiga soliqchi va ijtimoiy xodim ham kiritilishini ta'kidlab, "...Hozirgi tahlilarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz - mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo'ladi" – deya o'z e'tirofini bildirgan edi.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan Mahallalar uyushmasi tashkil etildi va mamlakatdagi 9300 dan ortiq mahallani birlashtirgan yangi uyushmaning asosiy vazifalari belgilab berildi.

Albatta, mahalla tizimidagi bunday ulkan islohotlar yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Avvalo, izohli lug'atni varaqlab so'z ma'nosini bilib olsak. "Mahalla" - arabcha so'z bo'lib, "joy", "o'rin", "makon" ma'nolarini bildiradi. Ya'ni, aholisi bir jamoaga birlashgan, o'z-o'zini boshqarishga asoslangan shahar yoki tumanning ijtimoiy-hududiy bo'lagi.

Mahallalar joylashuviga qarab "past mahalla", "mahalla guzari" va "yuqori mahalla" kabi hududlarga bo'linadi. Qishloq yoki mahallaning chorrahasidagi choyxona, novvoyxona, sartarohxonona, go'sht va baqqollik do'konlari bo'lgan obod gavjum joy - guzar deyiladi.

Shuningdek nutqimizda "mahalla-ko'y" so'zi ham mavjud bo'lib, "ko'y"- forschaga, "ko'cha", "yo'l" ma'nolarini bildiradi.

Oila mustahkamligi, yoshlar tarbiyasida mahallaning o'ri beqiyos bo'lib, har bir oila uchun katta ahamiyat kasb etadi. Mahalla ko'zgusida "o'zbekcha turmush tarzi"ning

betakror jilosini ko'ramiz.

To'ylar qilish - xalqimizning ezgu niyatlaridan biridir. Bugungi to'y-hashamlar yanada yangilanib, el-yurtimizning oliy udumiga aylangan. Mahalladagi to'y-ma'rakalarga oqsoqol, ya'ni hayotda ko'pni ko'rgan, kattayu kichikka gapi o'tadigan, el ishonchiga sazovor obro'li kishi bosh bo'ladi. U to'y-ma'rakalar va rasm-rusumlarining boshida turadi, o'zining maslahatchilari bilan birga kattayu kichikni boshini qovushtiradi, uning boshqaruvida mahalla oshpazi, qas-sobi, choypazi, nisholdachisi, dasturxonchisi, jarchisi, novvoyi, ustasi yeng shimarib xizmat qiladilar.

Mahallaning toshu tarozisi bor. Bunda xalqimizning yashash tarzi, o'zaro inoqligi va kirdi-chiqidi munosabatlari o'lchalanadi. Shunday ekan, har bir ish bamaslahat qilinadi. Kattalar jamoat yumushlarida, to'y-ma'raka va hasharlarda bosh bo'lib, mahalladoshlarni uyushqoqlikka, o'zaro hurmatga o'rgatadilar. Mahallada kimdir no-jo'ya qadam bossa, ko'pchilikka qo'shilmasa, o'zboshimcha hayot kechirsa, oqsoqol-jamoasi tartibga chaqiradi. Undaylarga "...nima bo'ldi, ko'chagayam chiqmay qo'ydingiz, tinchlikmi?"-deb hayratomuz savol beriladi. Mahalla tartibini buzganlarni o'rtaga olib muhokama qiladilar.

Xuddi "Suyunchi" kinofilmda Anzirat buvi va Xolmat bobo kasalxonaga otasini ko'rgan bormagan o'g'liga "...lekinchi, hatto choy ichishga piyolasi ham yo'q, istakonda choy

ichiyoti... Istakonda?" - deiyshganidek, dashnom beradilar. Yana bir boshqa ko'rinishni eslaylik, unda savdo qoidasini buzgan yigitni adabini berib qo'yadilar. Shunda Xolmat bobo: "... Tur o'rningdan, kattalar bilan gaplashganda o'rningdan turib gaplash! Anzirat, ruxsat ber, bir tushiray". Anzirat xola esa "essiz odam" ma'nosida sotuvchi yigitga qaraydida: "Qo'y Xolmat, ketdik" - deydi.

Albatta do'ppini orqaga kiyib g'ururlanamatiz, chunki mahalla toshu-tarozisini ushlab turadigan keksalarimiz borligi ham millatimizning ma'naviy boyligidan.

Mahallaning ahilligi to'ylarda, kimningdir o'g'li harbiy xizmatga ketayotganda yoki kelganda, hasharlarda, xudo saqlasin, har bandani boshida bor, dafn marosimlarida ham namoyon bo'ladi.

Mahalladoshlar "to'yga yetkazsin", "o'g'limiz askar bo'lsin", "hasharda hech bo'lmasa bitta g'isht yoki bir changal loy olib beray", - deb qo'shni uyiga kirishni odamiylik, yelkasidagi burch, kerak bo'lsa, qarz deb biladi. Kasalni yo'qlashni, yaqinidan judo bo'lgan kishiga sabr so'rab yonida turishni hamdardlik, mehribonlik deb butun vujud bilan his qiladi.

Ayniqsa, keksalarni naqshindor so'rida, yumshoq ko'rpachalarda to'y dasturxonini atrofida o'tirishlari va "To'ylar qilib, mahallaga osh berish hammaqa nasib etsin", - deb duo qilishlari bu - millatimiz ko'rki va ziyinatidir.

Taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobida, amerikalik olim bilan suhbatda "mahalla"ni shunday ta'riflagan: "...Bizda ayol kishi nobor eridan bezor bo'lsa, advokat chaqirmaydi, sudga bormaydi, mahallaga chiqadi. Mahalladagilar ayol xuquqini kamsitmaydi, ammo "qamatib yubor, bunday battolni" demaydi ham. Ayolga jinday sabr qilishni, ikki go'dakning ko'z yoshini oqizmaslikni maslahat beradi. Erakni chaqirib olib, ayolini tag'in xafa qilsa, begunoh bolalarini "tirik yetim" qilsa, uni mahalladan badarga qilib yuborishgacha

chora ko'rishini tushuntirib qo'yadi..."

Mahalladoshlar bir-biriga yordam berish va ezgulik ulashishni odat qiladi. "Mehmonjonlardan aylanay" kinofilmini hammamiz ko'rganmiz. Mahalladoshlar kun ora qator-qator bo'lib "nasiba" deb biri meva, biri non olib mehmonga kelishlari, duoyi salomlarni yetkazishlari, shahardagi ishlarini bitirish uchun haddi sig'ib yordam so'rashlari ibratomuz misoldir.

Yurtimizning qaysi mahallasiga bormang, qo'shni mahalladagi biror kishini so'rasangiz, u to'g'risida ko'p narsani bilib olasiz. Bu nimadan? Bu - qo'shni mahalla yoki qishloq to'y-ma'rakasiga bordi-keldi munosabatlardan yoki quda-andachilikdan. To'ylarda hurmat bilani oqsoqol: "Qo'shni mahalladan kelgan mehmonlardan tez-tez xabar olib turinglar", - deb xizmatdagi yoshlarga eslatib turadi. Mehr ko'zda deganlaridek, to'y bahonasida qo'shni mahalladoshlar ko'rishadilar, hamsuhbat bo'ladi. Hatto, to'y bazmi oldidan oqsoqol yoshlarni oqohlantirib, qo'shni mahalladan kelgan yigitlar bilan janjallashmaslik, hurmat qilish kabi talablarni qo'yadi.

Bu aytilganlarimiz mahalla ummonidan bir tomchi xolos. Mana endi, ayrim do'stlarimiz mahalla nufuziga avval bee'tibor qarashgan bo'lsalar, bundan buyon bilib oladilar. Lekin "o'zi bilan o'zi bo'lib yashayotgan kimdir: bu majburiymi?" - deiyishi mumkin. Yo'q, hoy yangi odam! Bu - qadim ajdodlarimizdan meros, bu - qonimizda bor, bu - milliy tarbiyamizdan, gapning indallosi, bu - o'zbekligimizdan.

Lekin unutmalsligimiz kerak, mahallada yaxshi-yomon gap yoki nojo'ya qadam, xuddi kinodagidek, "...hoy eshildilaringmi?" - deiyshsa agar, "Mahallada duv-duv gap" bo'ladi. Bu - "qadamingni o'ylab bos"-degani.

Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni,
Qushning ham bek bilan bekasi bordir.
Singiljon ekayver rayonlaringni,
Egasi bor yurtning ertasi bordir.

G'ofurjon YULDASHEV,
MKB O'quv markazi.

Islohot

INSON QADR-QIMMATI UCHUN

Ma'lumki, mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq sohasini takomillashtirish, jamiyatda adolatni qaror toptirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2023-yil 27-sentabrdagi "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bu borada muhim qadam bo'ldi.

Mazkur Qonun bilan sudlarda ishlarni taf-tish tartibida ko'rish bosqichi joriy etilmoqda. Ya'ni Jinoyat-protsessual kodeksi quyidagi yangi boblar: "Hukmlarning, ajrimlarning, qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirishning umumiy shartlari" (55-bob), "Sudning hukmi, ajrimi ustidan taf-tish tartibida shikoyat (protest) berish" (56-2-bob) bilan to'ldirildi.

Qonun bilan shuningdek, hukm ustidan apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) berish muddatlari 20 sutkadan 10 sutkaga qisqartirildi.

Apellatsiya shikoyati berish muddatini o'tkazib yuborgan shaxslar birinchi instansiyasudining apellatsiya instansiyasida ko'rilgan va qonuniy kuchga kirgan hukmlari va ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo'ladi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida birinchi instansiyada ko'rilgan hamda apellatsiya instansiyasida ko'rilgan ishlar bo'yicha berilgan shikoyat (protest)lar Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tomonidan kassatsiya instansiyasida ko'rib chiqiladi.

Agarda shaxs apellatsiya va kassatsiya instansiyasida chiqarilgan sud hukmi yoki ajrimidan norozi bo'lgan taqdirda, ushbu shaxslar taf-tish tartibida shikoyat (protest) berish huquqiga ham ega bo'ladi hamda mazkur ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taf-tish tartibida ko'rib chiqiladi.

Shu bilan birga quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jinoyat ishlari

bo'yicha sudlov hay'atida taf-tish tartibida ko'rib chiqiladi:

Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining, hududiy harbiy sudlarning, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan apellatsiya, kassatsiya yoki taf-tish tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek ushbu sudlar tomonidan tuman (shahar) sudlari, hududiy harbiy sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar bo'yicha apellatsiya, kassatsiya yoki taf-tish tartibida chiqarilgan hukmlari va ajrimlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining birinchi instansiyasida ko'rib chiqarilgan va ayni shu sudlar tomonidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek ushbu sudlar tomonidan birinchi instansiya tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha apellatsiya yoki kassatsiya tartibida chiqarilgan hukmlari va ajrimlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan taf-tish tartibida chiqarilgan sud qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi hamda Bosh prokurorining kiritgan protestiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida taf-tish tartibida takroran ko'rib chiqilishi mumkin.

Qonun 2024-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ushbu qabul qilingan Qonun sudyalarning mas'uliyatini oshirishga, ishlarni sifati va o'z vaqtida ko'rishga, fuqarolarning sud qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga hamda xalqimiz manfaatini va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

D.TURDIYEV,
Uchquduq tuman iqtisodiy sudi raisi.

"101" xabar qiladi

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" davlat korxonasi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va uning quyi tizimlari tomonidan qo'riqlanayotgan obyektlarda yong'in-qtqaruv qismlari shaxsiy tarkibining kasb mahorati va malakasini oshirish maqsadida Shimoliy kon boshqarmasiga qarashli temir yo'l sexida yong'in o'chirish amaliy taktik mashqi o'tkazildi.

AMALIY TAKTIK MASHQ



Unda temir yo'l sexida shartli ravishda yong'in yuzaga keltirilib, favqulodda holat e'lon qilindi. Amaliy taktik mashq obyektda tuzilgan ko'ngilli yong'inlardan saqlash xizmati drujinachilarining harakatlari bilan boshlandi. Chunki yong'in o'chirish avtomobillari yetib kelgunga qadar obyektdagi drujinachilar yong'in kengayib ketishining oldini olish ishlari olib borishadi. 7 va 6-Yong'in-qtqaruv qismidan 2 ta jangovar ekipaj voqea joyiga yetib keldi. Yong'in sodir bo'lgan joyga birinchi bo'lib yetib kelgan ekipaj sardori vaziyatni o'rganib, 2-chaqiruvni tasdiqladi va voqea joyida elektr energiyasi o'chirilganligi to'g'risida zarur hujjatlarni rasmiylashtirib, so'ng jangovar ekipajlarni hodisa sodir bo'lgan hududga yaqin joylashgan suv manbalari bilan va harakatga kirishlari to'g'risida buyruq qabul qilib, ekipaj a'zolari yon tomonda turgan boshqa rezervuarlarni sovitish va 4 ta yong'in o'chirish qo'l dastaklari yordamida yong'inni bartaraf etish choralarini ko'rdi. 2-chaqiruvga muvofiq yetib kelgan boshqa yong'in o'chirish avtomobillari yong'inni o'chirishga kirishdi va olib borilgan tezkor tadbirlar, komandirlarning bergan ko'rsatmalari natijasida shartli yong'in bartaraf etildi.

Bunday tadbirlarni o'tkazishdan asosiy maqsadimiz fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, yong'in va favqulodda holatlar sodir bo'lganda ularni tez va talofatsiz xavfsiz hududlarga olib chiqishdan iborat. Tadbir ishtirokchilari shunday vaziyatlar sodir bo'lganda nimalarga e'tibor berishlari va qanday harakatlarni amalga oshirishlari to'g'risida ham amaliy, ham nazariy ko'nikmalar oldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'quv mashqi nihoyasida hamkorlikdagi tashkilotlar va markazning quyi tizim xodimlari ishtirokida mashq muhokamasi bo'lib o'tdi.

Mirvohid O'RINOV,
bo'lim tezkor navbatchisi, mayor.

Ma'rufjon HAYITOV,
"NKMK" Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi YOQT guruhi boshlig'i, katta serjant.

